

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

TURAYEV FAZLIDDIN MUXITDINOVICH

**ETILEN (SO)POLIMERIDAN FOYDALANIB BOSMA MAHSULOTLARINI
LAMINATSIYALASH JARAYONI PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika
tizimlari (texnika fanlari) ixtisosligi**

**Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим
наукам

Contents of dissertation for doctor of philosophy (PhD) on Techniical Science

Turayev Fazliddin Muxitdinovich

Etilen (so)polimeridan foydalanib bosma mahsulotlarni laminatsiyalash
jarayoni parametrlarini asoslash.....3

Тураев Фазлиддин Мухитдинович

Обоснование параметров процесса ламинирования печатной продукции
при использовании (со)полимера этилена23

Turayev Fazliddin Muxitdinovich

Justification of Lamination Process Parameters for Printed Products Using
Ethylene (Co)polymers43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....46

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

TURAYEV FAZLIDDIN MUXITDINOVICH

**ETILEN (SO)POLIMERIDAN FOYDALANIB BOSMA MAHSULOTLARINI
LAMINATSIYALASH JARAYONI PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika
tizimlari (texnika fanlari) ixtisosligi**

**Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent –2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5667 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttysi.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rafikov Adham Salimovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Baxadirov G'ayrat Ataxanovich
texnika fanlari doktori, professor

Aliyeva Nargiza Baxtixoziyevna
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro Davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 27-avgust soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Shoxjahon ko'chasi, 5. Tel: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17; titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin. (307-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Yakkasaroy tumani, Shoxjahon ko'chasi, 5. Tel: (+9987) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 5 avgust kuni tarqatildi.
(2026 yil 5- avgustdagi 307-raqamli reestr bayonnomasi).



X.H. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

Sh.Sh. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
Qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarish va pardoqlash sohasida laminatsion polimer plyonkalardan foydalanish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida 2022-2029 yy davrning statistik ma’lumotlariga ko‘ra laminatsion plyonkalarining ishlab chiqarilishi yillik 19% suratda o‘tib borishi prognoz qilinmoqda. 2029-yilga kelib jahon miqyosida 16 270.5 mln AQSh dollari qiymati mahsulot ishlab chiqarilishi prognozlashtirilayotganini hisobga olsak, nashriyot va qadoqlash sanoatini rivojlantirish, laminatsion polimer plyonkalarni ishlab chiqarishni tashkil qilish va bunday materiallar uchun turli qog‘ozlarda laminatsiyalash texnologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Shu jihatdan nashriyot va qadoqlash mahsulotlarini laminatsiyalash uchun tegishli texnologik jarayonlar talablariga javob beruvchi etilen (so)polimeri asosidagi polimer plyonkalarni olish va laminatsiyalash jarayonlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda mavjud texnologiyalar bo‘yicha nashriyot va qadoqlash mahsulotlarini laminatsiyalash uchun yangi polimer materiallar hamda yelim turlarini ishlab chiqish va xususiyatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, laminatsiyalash jarayonida foydalanish uchun turli polimer plyonkalar va yelimlarning laminatsiyalash sifatiga ta’sirini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada mahalliy sharoitda polimer materiallar va yelimlar asosida laminatsion plyonkalarni ishlab chiqarish, keng assortiment materiallarni mahalliy lashtirish, raqobatbardoshlikni ta’minlash, energiya va resurstejamkor texnologiyalarni yaratish, laminatsiyalash jarayoni parametrlarini aniqlashga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda nashriyot va qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarishda laminatsiyalash jarayonini keng qo‘llash, mahalliy sharoitda laminatsion polimer materiallarini ishlab chiqarish va shu asosida ularni import o‘rnini bosuvchi mahsulot sifatida qo‘llash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish”¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, etilen (so)polimeri va yelimlarining xossalariidan kelib chiqqan holda laminatsiyalash sifatini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-senabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2020-yil 16-martdagi PQ-4640-son “Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turli polimer materiallar va yelimlar asosida laminatsion materiallar yaratish, ularni nusxalarning rang parametrlariga ta’sirini tadqiq etish bo‘yicha xorijda A.S. Smolin, W. Charinee, A. Ajcharaporn, I. Jintapatee, P. Boonsita, D. Witchuda, M. Furuse, S. Fuchino, D. Gregor-Svetec, N. Peelman, P. Ragaert, B. De Meulenaer, J. Langley, N. Turner, A. Yoxall, B. Laycock, M. Nikolic, J.M. Colwell, E. Kibirkštis, V. Mayik, R. Zatserkovna, K. Vaitasius, A. Stepanenko kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Polimer yelimlar sohasidagi tadqiqotlar W. Li, L. Bouzidi, S.S. Narine, M.A. Moyano, R. Paris, J.M. Martin-Martinez, C.W. Paul, X. Peng, X. Liu, Y. Huang, L. Sang va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan.

O‘zbekistonda laminatsion va boshqa turdagi polimer plyonkalar, ularda chop etish va sanoatda qo‘llash bilan bog‘liq ilmiy ishlar M.A. Askarov, S.Sh. Rashidova, U.N. Musayev, T.M. Babayev, F.A. Magrupov, S.R. Kamalova, X.A. Babaxanova kabi olimlar va ularning ishlari bilan bog‘liqdir.

Mazkur tadqiqotlar natijasida turli polimer materiallarning xossalari, ulardan nashriyot va qadoqlash mahsulotlarini laminatsiyalashda foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish bo‘yicha muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilib kelinayotgan bo‘lsada, etilen (so)polimeri asosidagi polimer material va yelimidan foydalangan holda laminatsion plyonkalarining turli qog‘ozlar bilan ta’sirlashuvi va himoya xossalari masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Maya Plast” MChJ korxonasi bilan hamkorlikda tuzilgan xo‘jalik shartnomasi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi etilen (so)polimeri asosidagi plyonka va yelimlar bilan nashriyot va qadoqlash mahsulotlarini laminatsiyalash jarayoni parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nashriyot va qadoqlash mahsulotlarini laminatsiyalash uchun turli mahalliy polimer va yelimlovchi materialardan foydalanib sifatni oshirish bo‘yicha imkoniyatlarni ochib berish;

laminatsiyalash uchun etilen (so)polimeri asosidagi polimer materiallardan foydalanishda laminatning fizik-mexanik va nusxaning kolorimetrik xossalarini ta’minlovchi parametrlarni asoslash;

laminatsiyalash jarayonida etilen-vinilatsetat sopolimeri (EVA) yelimidan foydalanib adgezion mustahkamlikni oshirish parametrlarni asoslash;

tajribani matematik modellash tirishda kichik kvadratlar usuli bilan laminatsiyalash sifatini ta’minlovchi parametrlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash;

tadqiq qilingan laminatsiyalash materialaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida mahalliy sharoitda olingan etilen (so)polimeri asosidagi laminatsion plyonka va EVA yelimi namunalari, ulardan foydalangan holda tayyorlangan laminatsiyalangan nusxalar olingan.

Tadqiqotning predmeti mahalliy sharoitda olingan etilen (so)polimeri asosidagi laminatsion plyonka va EVA yelimi namunalarining fizik-mexanik xossalari, laminatsiya jarayonining parametrlari hamda laminatsiyalangan nusxalarning sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada zamonaviy lazer mikroskop tahlillari, IQ-spektroskopiya, densitometriya, spektrofotometriya, polimer materiallarning mexanik sinovlari va tajribalarni rejalashtirish bo'yicha matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nashriyot va qadoqlash mahsulotlarini poliolefin plyonka bilan laminatsiyalash uchun mavjud polimer suyuqlanmalariga nisbatan qutbli va qutbsiz funksional guruhlariga ega bo'lgan etilen-vinilatset sopolimeri eritmasining kuchli adgeziv xususiyatni namoyon etishligi aniqlangan;

etilen vinilatsetat makromolekulasining etilen zvenolari poliolefin laminatsion plyonka bilan fizik-kimyoviy va termodinamik moyilligi tufayli, vinilatsetat zvenolari esa qogoz selyulozasi bilan fizik-kimyoviy va termodinamik moyilligi tufayli mahsulot qatlamlarini bog'lovchi vazifasini bajarishligi aniqlangan;

nashriyot va qadoqlash mahsulotlarini laminatsiyalash uchun tarkib – temperatura – tezlik – vaqt omillarining ishlab chiqilgan o'zaro mutanosib bog'liqlik parametrlari nashriyot va qadoqlash mahsulotlarida bosma bo'yoqlarining laminatsiyalangan mahsulot bilan mustaxkam va barqaror bog'lanishini taminlashligi isbotlangan;

laminatning qatlamlararo morfologiyasi EVA yelimining ksilol-toluol aralashmasidagi eritmasini qog'oz yuzasi mikrostrukturasiga sorbsiyasi va diffuziyasi, polimer plyonkaning qisman eritishi natijasida adgeziv-kogeziv balansning funksional o'zgarishi isbotlagan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

etilen-vinilatsetat (EVA) sopolimeri yordamida laminatsiyalash jarayonining ratsional parametrlari, xususan, yuqori adgezion mustahkamlik va qoplama bir xilligini ta'minlaydigan harorat, bosim va yuritma tezligi aniqlangan;

laminat qatlamlari (qog'oz – polimer plyonka) o'rtasidagi yopishish mustahkamligining sopolimer tarkibidagi vinilatsetat miqdoriga qarab o'zgarishi aniqlangan;

kompozitsion materialning kolorimetrik, mexanik va termik xususiyatlarini (qatlam ajralishiga chidamlilik, issiqlikka bardoshlilik) aniqlashni o'z ichiga oladigan laminatsiyalangan nusxalarning sifati baholash usuli ishlab chiqilgan;

laminatsiyalash jarayonining texnologik parametrlariga (harorat, bosim, tezlik va yopishqoq qatlam tarkibi) qarab laminatning adgezion mustahkamligini bashorat qilish imkonini beradigan regression model ishlab chiqilgan;

matbaachilik korxonalari uchun EVA-sopolimerdan foydalanish orqali tayyor mahsulot sifatining oshishini va energiya sarfining kamayishini ta'minlaydigan laminatsiyalashning tavsiyaviy rejimlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning o'zaro bog'liqligi, aprobatiya va ishlab chiqarishga joriy etilgan natijalarining ijobiyliigi, ularning o'rganilgan fan sohasidagi ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati EVA sopolimeri eritmasining konsentratsiyasini va qovushqoqligini boshqarish orqali har qanday qog'oz yozasidagi mikrog'ovoklarda suyuqlanmayelimga nisbatan yuqori darajadagi sorbsiya va diffuziyasining ta'minlanganligi, polimer plyonka bilan EVA ning etilen guruhlarini, qog'oz bilan unung vinilatsetat guruhlarining molekulalararo ta'sirlashuvining aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yelimlovchi modda sifatida EVA sopolimeri eritmasidan foydalangan holda laminatsiyalashda adgezion mustahkamlikka erishilganligi va mustahkamlik parametrlarini asoslovchi matematik bog'lanish ishlab chiqilganligi, materiallarning fizik-mexanik, bosma-texnik xossalarini aniqlanganligi va laminatsiyalash jarayonida mahalliy xomashyodan foydalanish imkoniyatlarining kengaytirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Laminatsion polimer materiallarni olish, nashriyot va qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'llash, jarayon parametrlarini asoslashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar bo'yicha olingan natijalar asosida:

mahalliy sharoitda olingan polipropilen plyonka "MAYA PLAST" MChJ va "SHARQ" NMAK bosmaxonasida joriy qilingan ("Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining 2025-yil 5-noyabrdagi 2/21-146-sonli ma'lumotnomasi). Natijada nashriyot va qadoqlash mahsulotlarini laminatsiyalsh sifati yaxshilangan va mahalliyashtirish hisobiga materiallar tannarxini 29% ga arzonlashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, Skopus xalqaro bazasiga kiruvchi jurnallarda 1 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangilik va amaliy natijalar

bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilmasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Nashriyot va qadoqlash mahsulotlarini laminatsiyalashning nazariy asoslari va texnologiyalari”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusiga oid nashr etilgan manbalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganilgan va tahlil natijalari keltirilgan. Etilen sopolimeri asosida polimerlar va PEVA yelimi qo'shib laminatlarni tayyorlash, ularning fizik-mexanik va bosma-texnik xususiyatlari haqida yetarli ma'lu-motlar keltirilmagan. Shu sababli matbaa-noshirlik sanoati uchun etilen (so)polimeri va PEVA yelimidan foydalanishning maqsadga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan laminatsiyalash jarayoni parametrlari asoslashning dolzarbligi ko'rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Laminatsiyalash jarayonida sifat nazoratining ilmiy asoslari”** nomli ikkinchi bobida plyonka qoplashning nazariy asoslari, plyonka qoplashda qo'llanadigan materiallarga qo'yiladigan talablar, plyonka qoplash materiallari va chop etish sifatiga talablar, plyonka qoplangan mahsulotlarning sifatini nazorat qilish usullari, tayyor mahsulotlarning sifatiga ta'sir qiluvchi omillar keltirilgan. Laminatlar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi: plyonkaning nusxaga qoplanish mustahkamligi, tayyor mahsulotda buralishning mavjud emasligi, nusxa polimer qoplamining shaffofligi va rangsizligi, nusxada rang tavsifnomalarining saqlanishi va tashqi ko'rinishining boshqa xususiyatlarini o'zgarmasligi.

Tahlillar asosida laminatsiyalangan nusxalarga tegishli erishilishi zarur bo'lgan sifat talablari aniqlashtirilgan: bir adadga tegishli nusxalar bir xil o'lchamga ega bo'lishi kerak (ruxsat etilgan farqlanish ± 2 mm); tegishli uskunalar ishining texnologik o'ziga xosliklariga bog'liq holda chop etilgan varaqlarda aniq tomonlar xoshiyalari kamida 15 mm bo'lishi, qarama-qarshi tomonlar kamida 7 mm bo'lishi kerak; varaqlarning chekkalari g'ijim va buklanishlarga ega bo'lmasligi kerak; barcha nusxalar yaxshilab quritilgan va saralangan bo'lishi kerak.

Uchinchi bob – **“Laminatsiyalashda mahalliy materiallardan foydalanish va jarayon parametrlarini asoslash”** da tadqiqot natijalari muhokama qilingan. Yelim eritmasi yordamida qog'oz va kartonni polipropilen plyonka bilan laminatsiyalash yelim eritmasining olinishidan boshlandi. PEVA granulalari ustidan erituvchining hisoblangan miqdori quyildi, bo'kishi uchun bir sutkaga qoldirildi, keyin suv hammomida bir turdagi qovushqoq eritma hosil bo'lganga qadar biroz qizdirgan holatda intensiv tarzda aralashtirildi. PEVA ning konsentratsiyasi turlicha bo'lgan eritmalarni olish dastlabki eritmani suyultirish yo'li bilan amalga oshirildi. Polimetilmetakrilat (PMMA), polistirol (PS) va polixloropren (PXP) larning eritmalari ham shunga o'xshash tarzda tayyorlandi. Polietilmetakrilat (PEMA) va polibutilmetakrilat (PBMA) eritmalari esa monomerlarni polimerlantirish orqali tayyorlandi.

Qog'ozni laminatsiyalash. Polipropilen (PP) plyonkasining ichki yuzasiga qalinligi 0,1 mm bo'lgan yelim eritmasini surtish rakel qurilmasi yordamida amalga oshirildi. Laminatsiyalash jarayoni “A4 Exact LR-H001” qurilmasida qog'oz va PP plyonka qatlamlarini 90-100 °C haroratda vallarning bosimi ostida yelimlash yo'li bilan amalga oshirildi. Vallarning eni 20 sm, vallarning diametri 3 sm, qog'ozning o'tishi tezligi $0,66 \pm 0,04$ m/daq.

Qatlamlar orasidagi adgezion mustahkamlik yelimli birikmaning asosiy sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Erituvchining tabiati ham katta ahamiyat kasb etadi: u yelimni yaxshi eritishi, shuningdek, polimer plyonka bilan yaxshi moslashishi kerak. Ma'lumki, poliolefinlar yuqori haroratlarda aromatik ushlevodorodlarda eriydi. Benzol tez bug'lanadi, texnologik tomondan noqulaylik keltirib chiqaradi. Shuning uchun erituvchi sifatida toluol aralashmasiga ega ksilol tanlandi, u sanab o'tilgan polimer yelimlarni yaxshi eritadi, shuningdek, PP plyonkaning yuzasini qisman eritadi. Tadqiq qilingan barcha yelim-eritmalarining adgezion mustahkamligi laminatsiyalangan qog'ozdagi qatlamlarni ko'chirib olish kuchi ko'rsatkichi sifatida aniqlandi (1-jadval).

1-jadval


Laminatsion plyonkani qog'ozning yuzasidan ko'chirib olish kuchining yelimning tabiatiga bog'liqligi

Polimer yelim	PEVA	PMMA	PEMA	PBMA	PS	PXP	Analog*
Adgezion mustahkamlik, N	5,6	3,1	3,8	3,9	2,6	4,2	5,5

* - Analog sifatida "EKO Film Manufacture Co." Ltd (Guangdong, Xitoy) tomonidan ishlab chiqarilgan, qog'oz laminatsiyasi uchun yopishqoq qatlamli, qalinligi 24 mikron bo'lgan sanoat PP plyonkasi tanlandi.


1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, PEVA yordamida laminatsiyalashning mustahkamligi analogning ko'rsatkichlaridan ortda emas, boshqa yelimlarning ko'rsatkichlari esa analoglarnikidan past. Shu bilan bir vaqtda PMMA, PEMA va PS yelim qatlamlari nisbatan qattiq bo'lib, bu qog'oz o'ramlar uchun noqulay hisoblanadi. PBMA makromolekulalarining uzunroq bo'lgan yon radikal yelim qatlamiga elastiklik beradi, lekin adgezion mustahkamligi yetarlicha bo'lmadi. Kutilganidek, PXP ning adgezion mustahkamligi ko'pchilik yelimlarga nisbatan yuqori, lekin PEVA va analogiga nisbatan pastroq. Ehtimol, PEVA ning difilligi, ya'ni makromolekulasida gidrofil vinilatsetat bo'g'inlari va oleofil etilen bo'g'inlarining mavjudligi laminatsiyalangan qog'oz qatlamlarining yuqori pishqlikda yelimlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Navbatdagi tadqiqotlar eritmadagi PEVA konsentratsiyasining yelimli birikmaning adgezion mustahkamligiga ta'sirini aniqlash maqsadida amalga oshirildi (1-rasm).



1-rasm. Laminatsiyalangan qog'oz yelimli birikmasi adgezion mustahkamligining PEVA konsentratsiyasiga bog'liqligi

PEVAning konsentratsiyasi 11% ga yetganda yelimli birikmaning adgezion mustahkamligi oshadi, po-limer kolnsentratsiyasining keyingi oshirilishi mustahkamlikning orti-shiga olib kelmaydi. Laminatsiya-langan qog‘ozning komponentlari orasida o‘zaro ta’sirlashuv tavsifini aniqlash uchun IQ-Furye spektroskopik tadqiqotlar amalga oshirildi (2-rasm).




2-rasm: PP (A), PEVA (B), PP-PEVA (C) laminatsion plyonkalar va laminatsiyalangan qog‘oz (D) ning IQ-Furye spektrlari

PP plyonkaning IQ-Furye spektrlarida $C-H$ va $C-C$ bog‘larning valent (ν) va deformatsion (δ) tebranishlariga tavsifli bo‘lgan yutilish yo‘lkalari aniqlandi: 2949-2839 sm^{-1} sohada – ν_{C-H} ; 1456-1304, 528-459 sm^{-1} sohada – δ_{C-H} ; 1359-809 sm^{-1} sohada – $\nu_{C-C} + \delta_{C-C}$. PEVA yelimi: 2917 va 2849 sm^{-1} da – ν_{C-H} , 1737 sm^{-1} da – $\nu_{C=O}$; 1465 va 1372, 743-608 sm^{-1} da – δ_{C-H} ; 1239-821 sm^{-1} sohada – $\nu_{C-O} + \nu_{C-C} + \delta_{C-O}$.

PEVA yelimiga ega PP plyonkaning IQ-Furye spektrlarida polipropilen va PEVA bog‘larining yutilish yo‘lkalari aniqlandi, shu jumladan yelimning o‘zidagigan nisbatan pastroq intensivlikda 1738 sm^{-1} da. Laminatsiyalangan qog‘ozning IQ-Furye spektrlarida ham avvalgi yutilish yo‘lkalari saqlanib qoladi, sellyulozaning yutilish yo‘lkalari paydo bo‘ladi, masalan 3282 sm^{-1} da intensivligi past keng polosa ν_{O-H} . Birlashtirilgan mahsulotlarda yaqqol namoyon bo‘lgan yangi yutilish yo‘lkalarining mavjud emasligi laminatsiyalash jarayonida komponentlar orasida kimyoviy emas, balki adgezion o‘zaro ta’sirlashuvning yuzaga kelishidan dalolat beradi.


SEM-EDA-tahlil tadqiqotlari PP plyonka namunasining yuzasi morfologiyasini, uning PEVA yelimi va laminatsiyalangan qog‘oz bilan kesimi xususiyatlarini, shuningdek, yelimning qog‘oz va polimer plyonka bilan o‘zaro ta’sirlashuvi tavsifini aniqlash maqsadida amalga oshirildi. 3-rasmda yelim qatlamiga ega PP plyonkaning ko‘ndalang kesimi ko‘rsatilgan.



3-rasm: Laminatsiyalash uchun mo‘ljallangan PP plyonka ko‘ndalang kesimining SEM-tasviri: (A) – sanoat namunasi, (B) – tajribaviy namuna

3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, sanoatda qo‘llanadigan laminatsion plyonka umumiy qalinligi 20-23 mkm bo‘lgan uchta qatlamdan tashkil topadi; yelim qatlamining qalinligi 6-10 mikron. Olingan laminatsion plyonka umumiy qalinligi 26-29 mikron bo‘lgan ikkita qatlamdan iborat; yelim qatlamining qalinligi 8-12 mikron.


Laminatsiyalangan qog‘ozning mikrostrukturasi aniqlashtirish uchun uning ko‘ndalang kesimi SEM-tasvirlari olindi (4-rasm).



4-rasm: Tijoriy (A) va tajribaviy (B) polipropilen plyonka bilan laminatsiyalangan qog‘oz ko‘ndalang kesimining SEM-tasviri

Laminatsiyalangan qog‘ozning qalinligi polimer plyonka bilan birgalikda 210-220 mikronni tashkil qiladi. Sanoat namunasidan farqli ravishda, tajribaviy namunamizda PP plyonka yaqinida mikrog‘ovakliklar polimer yelimi eritmasi bilan to‘lgan. Ehtimol, polimer yelimi eritmasi qog‘ozda tolalararo bo‘shliqqa sizib kiradi va bunda PP plyonkaning kontakt yuzasini qisman eritadi. Bularning barchasi qog‘oz va laminatsiyalovchi plyonkaning yuzasi orasidagi o‘zaro adgezion ta’sirlashuvning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Yuqoridagi fikrni tasdiqlash uchun

laminatsiyalangan tajribaviy qog‘ozning har bir qatlami SEM-EDA tahlildan o‘tkazildi (5-rasm).




5-rasm. Tajribaviy laminatsiyalangan qog‘oz qatlamlarining SEM-EDA tahlili

Laminatsiyalangan qog‘ozning skanerlangan uchta maydonlaridan energodispersion spektrlar yozib olingan. Birinchi soha PP plyonkasining qirqimiga taalluqli bo‘lib, unda uglerod atomlari aniqlanishi kerak. Bu sohada kislorodning ham mavjudligi aniqlandi. Ehtimol, kislorod PEVA ga taalluqli bo‘lib, bu holat kislorodning bir qismi qisman erishi natijasida PP plyonkaga o‘tishi haqidagi yuqorida keltirilgan taxminni tasdiqlaydi. Ikkinchi soha taxminan PEVA mos keluvchi nisbatda uglerod va kislorod atomlariga ega. Bu holat yelim eritmasining qog‘ozning mikrog‘ovakliklariga kirishi haqidagi yana bir taxminni tasdiqlaydi. Uchinchi sohada uglerod va kislorodning massaviy nisbati tabiiy hisoblangan qog‘oz massasining tarkibiga mos keladi.

SEM-EDA tadqiqotlari qog‘oz va polimer plyonkaning bo‘linish chegarasida ham davom ettirildi (6-rasm).

Yuklama ostida kuch bilan uzishdan so‘ng polimer plyonkaning yuzasida kuzatiladigan tasvir laminatsiyalangan qog‘ozda adgeziya va kogeziya kuchlarining nisbati haqida axborot beradi. Plyonkaning chekkasida oq dog‘lar ko‘rinishidagi qog‘oz ishlari yaqqol sezilib turibdi. Bu dog‘lar uchta qismlarining elementli atrkibi deyarli bir xil va mineral bilan to‘ldirilgan qog‘ozning tarkibiga mos keladi. Katta miqdorda kalsiyning mavjudligi bo‘yicha xulosa chiqariladigan bo‘lsa, to‘ldiruvchi kalsiy karbonat yoki bo‘rdan iborat. Bu dog‘lar bo‘r zarralarining sellyuloza tolalari bilan aglomeratidan iborat.




6-rasm. Laminatsiyalangan qog‘ozning tajribaviy namunasida PP plyonka va qog‘ozning bo‘linishi chegarasining SEM-EDA tahlili

Yuzasida dog‘ mavjud bo‘lmagan yana to‘rtta yuza maydonlarining elementli tarkibi skanerlandi. Bu maydonlarda deyarli bir xil tarkibdagi uglerod va kislorod atomlari aniqlandi. Bu esa PEVA ning tarkibiga mos keladi. Olingan natijalarni quyidagi tarzda talqin qilish mumkin. PEVA yelimining PP plyonka bilan ilakishish kuchi qog‘oz bilan ilakishishga nisbatan sezilarli darajada yuqori; ajralishda yelim deyarli to‘liq holda plyonkaning yuzasiga o‘tadi. PEVA yelimining qog‘ozning yuzasi bilan o‘zaro ta’sirlashuvining adgezion kuchlari qog‘oz qatlamining ichidagi ilakishish kuchlari bilan taqqoslanadigan darajada hisoblanadi. Umuman olganda qog‘oz bo‘lakchasi eng zaif bo‘g‘inda – mineral to‘ldiruvchining to‘planish joylarida uziladi.

Namunalarning termik xossalari termogravimetriya (TGA) va differensial-termik tahlil (DTT) usullari bilan tadqiq qilindi. PP plyonka, polimer yelim, yelim qatlamiga ega laminatsiyalovchi plyonkalarining TGA va DTT egri chiziqlari olindi (7-rasm, 2-jadval).

PP plyonka yetarlicha yuqori termobarqarorlikka ega, 33 dan 342 °C harorat-gacha massaning bor-yo‘g‘i 0.33% qismini yo‘qotadi. Bu intervalda DTT egri chizig‘ida 168°C da bitta endotermik pik kuzatiladi, effektning qiymati - 103,2 Dj/g, u fazaviy o‘tish - erish jarayoniga mos keladi. 342 °C dan yuqori haroratda massaning intensiv yo‘qoti-lishi boshlanadi va 469 °C gacha namuna massasining 96% qismi yo‘qotiladi.



7-rasm. Polipropilen plyonka (A), PEVA yelimi (B), laminatning sanoat analogi (C) va tajribaviy laminatning (D) TGA va DTT egrilari

Bu uchastkada PP ning to‘liq destruksiya sodir bo‘ladi, u 443 °C haroratda pik bilan -952 Dj/g endotermik effekt bilan kechadi. Namunaning kuygan qoldig‘i boshlang‘ich massaga nisbatan 2,7% ni tashkil qiladi.

2-jadval

PP plyonka, yelim va laminatlar uchun TGA va DTT jarayonlarining ekstremal nuqtalari


Jarayon nuqtalari	TGA			Jarayon nuqtalari	DTT	
Polipropilen						
Boshlanishi, C	33.21	341.69	469.13	Boshlanishi, °C	138.70	344.47
Yakuni, °C	341.69	469.13	601.69	Pik, °C	168.4	442.93
Massa yoʻqotilishi, %	-0.326	-96.091	-0.896	Yakuni, °C	184.42	469.55
	-97.313			Issiqlik effekti, Dj/g	-103.20	-952.21
PEVA yelimi						
Boshlanishi, C	33.49	200.88	492.44	Boshlanishi, °C	380.62	
Yakuni, °C	200.88	492.44	601.71	Pik, °C	470.28	
Massa yoʻqotilishi, %	-0.341	-97.472	-0.823	Yakuni, °C	496.53	
	-98.636			Issiqlik effekti, Dj/g	-317.32	
Laminatning sanoat analogi						
Boshlanishi, C	32.47	321.43	481.52	Boshlanishi, °C	139.15	373.59
Yakuni, °C	321.43	481.52	601.72	Pik, °C	166.34	458.47
Massa yoʻqotilishi, %	-1.289	-96.778	-0.709	Yakuni, °C	179.30	484.79
	-98.776			Issiqlik effekti, Dj/g	-65.38	-937.49
Tajribaviy laminat						
Boshlanishi, C	31.87	325.20	466.53	Boshlanishi, °C	146.23	
Yakuni, °C	325.20	466.53	601.71	Pik, °C	167.74	
Massa yoʻqotilishi, %	-0.959	-97.26	-1.918	Yakuni, °C	183.1	
	-99.19			Issiqlik effekti, Dj/g	-100.12	

PEVA yelimining TGA egrisi uchta uchastkaga ega: 33-201°C da massaning sezilarsiz yo‘qotilishi 0,34%; 201-492 °C massaning sezilarli yo‘qotilishi 97,47%; 492-602 °C massaning yana sezilarsiz yo‘qotilishi 0,82%. Namunaning kuygan qoldig‘i boshlang‘ich massaga nisbatan 1,3% ni tashkil qiladi. PEVA ning erishi 80-85 °C haroratda massa yo‘qotilmagan holda kechadi, sezilarsiz endotermik effekt ham sodir bo‘ladi. DTT egrisida 470 °C haroratda -317,3 Dj/g endotermik issiqlik effektiga

ega bitta pik aniqlandi. U namunaning to'liq destruksiyasini tavsiflaydi. 85 °C dan yuqori haroratda PEVA qovushqoq-oquvchan holatga o'tishi va 200 °C gacha qizishga chidashi aniqlandi.

Sanoat analogi va tajribaviy laminatga tegishli TGA va DTT yuqoridagiga o'xshash shaklga ega. DTT egrisining birinchi uchastkasida sanoat laminati 321 °C haroratgacha 1,29% massani yo'qotadi, tajribaviy laminat 325 °C haroratgacha 0,96% massa yo'qotadi. Ikkinchi uchastkada ikkala namuna to'liq destruksiyaga uchraydi, analog uchun 321-482 °C intervalda 96,78% massa yo'qotiladi, tajribaviy namuna uchun 325-467 °C intervalda 97,26% massa yo'qotiladi. Ikkala namunaning DTT egrilarida 166-167 °C da erish jarayonining aniq namoyon bo'lgan endotermik piki aniqlandi. Sanoat laminati namunasida 458 °C da -937,5 Dj/g issiqlik effektiga ega ikkinchi endotermik pik aniqlandi. Tajribaviy namunada bu pik biroz silliqlangan, ehtimol yelim eritmasining PP plyonkaning molekulyarusti strukturasi shimilishi hisobiga.

Qatlamlar orasidagi aldegion mustahkamlik yelimli birikmaning asosiy sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Adgezion mustahkamlik laminatsiyalangan kartondagi qatlamni ko'chirib olish kuchi sifatida aniqlandi (8-rasm).



8-rasm. Karton (1), sanoat namunasi (2) va tajribaviy namuna (3) ning fizik-mexanik xossalari: sirt zichligi, g/m² (A), adgezion mustahkamlik, N (B), ikki tomonlama buklashlarga chidamlilik (C), yeyilishga chidamlilik, kPa·m²/g (D)

8-rasmdan ko'rinib turibdiki, sanoat va tajribaviy laminatsiyalangan karton bir xil sirt zichligiga ega, u kartonga nisbatan taxminan 9% yuqori. Shu bilan bir vaqtda asosiy fizik-mexanik xossalari bo'yicha tajribaviy karton sanoat namunasiga nisbatan yaqqol ustunlikka ega. Ehtimol, tajribaviy namunada qatlamlarni yelimlash uchun PEVA eritmasidan foydalanilganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Eritma PP plyonkaning yuzasini qisman eritadi va bir vaqtning o'zida kartonning mikrog'ovakliklariga singadi.

PEVA yelimi eritmasidan foydalanib olingan namuna uchun laminatsiyalangan qog'ozning ba'zi muhim ko'rsatkichlari aniqlandi (3-jadval).

Laminatsiyalangan qog'ozning fizik-mexanik xossalari

Namuna	Yuza zichligi, g/m ²	Bukilishga qarshiligi, ikkitali buklashlar soni	Bosimga qarshiligi, kPa·m ² /g
Laminatsiz qog'oz	220±3	15	-
Sanoat analogi bilan laminatsiyalangan qog'oz	240±4	100 dan yuqori	3,68±0,06
Laminatsiyalangan qog'oz	245±4	100 dan yuqori	5,12±0,06


Olingan ma'lumotlar PEVA yelimi eritmasidan foydalanib qog'ozni PP plyonka bilan yaltiroq laminatsiyalashning yaqqol ustunligini ko'rsatib berdi.

Dissertatsiya ishining **“Laminatsion plyonkaning nusxaning koloristik parametrlariga ta'siri tahlili”** deb nomlangan to'rtinchi bobida laminatsiyalangan maxsulotning bosma-texnik xossalari muxokama etilgan. Matbaachilikning istalgan yo'nalishida ranglarning aniq uzatilishi sifatli tasvir chop etishda asosiy talablardan biri hisoblanadi. Laminatsiyalash va bosishdan so'ng bajariladigan boshqa operatsiyalar bezak va himoya elementlari hisoblanib, tasvirlarning ko'rib qabul qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Ofset bosmada bosiluvchi va oraliq elementlar bitta tekislikda yotadi, lekin yuzasining fizik-kimyoviy xususiyatlari farqlanadigan turlicha materiallarga mos keladi (masalan, alyuminiy va polimer qoplam). Chop etish jarayonida chop etilishi kerak bo'lmagan maydonlar bo'yoqni o'ziga qabul qilmaslik uchun oldindan namlanadi. Keyin esa bosma qolipiga bo'yoq suritaladi va u faqat bosiluvchi elementlarga yopishadi.

Bosma-texnik xossalari tahlili uchun rang farqlanishini hisoblash amalga oshirildi. Rang farqlanishi – bu odatda CIE L*a*b* rang modelidan foydalanib delta E (ΔE) parametri bilan baholanadigan nusxadagi ranglarning asl nusxaga nisbatan o'zgarishi ko'rsatkichi hisoblanadi. CIE L*a*b* rang fazosi uchta o'lchovdan tashkil topib, ular L* (ravshanlik), a* (yashil-qizil o'q) va b* (ko'k-sariq o'q) dan iborat. Ya'ni ranglar uch o'lchamli fazoda joylashgan namuna bo'yicha bosma nusxasida hosil qilinadi va yuqorida aytib o'tilganidek, rangli bo'yoqlarning ustidan qoplangan shaffof plyonka va yelimlar ranglarning optik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi.

Laminatsiyalashdan so'ng ranglarning o'zgarishini nazorat qilish elementlari sifatida standart test shkalalaridan foydalanildi (9-rasm). Nazorat elementlarini chop etish uchun 220 g/m² bo'lgan muqova qog'oz tanlandi.



9-rasm. Nazorat shkalasi

